



BUYRUQ | ПРИКАЗ

20 22 y. « 28 ». 07 № 456

**“Uzbekistan Airways” AJda
korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash
Uslubiyoti”ni amalga kiritish to’g’risida**

“Uzbekistan Airways” AJ o‘z funksiyalarini amalga oshirishda korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etish tizimini yangi bosqichga olib chiqish, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-sonli “Korruptsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi hamda 2022-yil 11-maydagi “Davlat boshqaruvi sohasida korruptsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-240-sonli Qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. “Uzbekistan Airways” AJda korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti” (keyingi o‘rinlarda – Uslubiyot) mazkur buyruqning 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin va 2022-yil 25-iyuldan amalga kiritilsin.

2. “Uzbekistan Airways” AJ va uning tarkibiga kiruvchi barcha korxonalarda korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlari mazkur Uslubiyot asosida tashkil etilsin.

3. “Uzbekistan Airways” AJ Boshqaruvi raisi o‘rinbosarlari, departament, boshqarma, xizmat va bo‘limlar rahbarlari, shuningdek “UAT”, “Uzbekistan Helicopters”, “O‘MM” va “Ketrin” MChJ direktorlari:

3.1. **Uch ish kuni muddatida** Korruptsiyaga qarshi kurashish va komplayens xizmati bilan kelishilgan holda, tegishli bo‘linmalardagi korruptsiyaga qarshi kurashish uchun mas’ul xodimlarni tayinlab, mazkur Uslubiyot ular tomonidan imzolagan holda o‘rganib chiqilishini tashkil etsin;

3.2. **O‘ttiz ish kuni muddatida** “Uzbekistan Airways” AJ departament, boshqarma, xizmat, bo‘limlar va uning tarkibiga kiruvchi korxonalarda mazkur Uslubiyotga muvofiq korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlarini tashkil etib, Uslubiyotning 1-ilovasiga asosan o‘rnatilgan tartibda to‘ldirilgan korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini Korruptsiyaga qarshi kurashish va komplayens xizmatiga taqdim qilinishini ta’minlasin;

3.3. **Qirq ish kuni muddatida** “Uzbekistan Airways” AJ departament, boshqarma, xizmat, bo‘limlar va uning tarkibiga kiruvchi korxonalarda mazkur Uslubiyotning 3-ilovasiga asosan o‘rnatilgan tartibda tasdiqlangan korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturni Korruptsiyaga qarshi kurashish va komplayens xizmatiga taqdim qilinishini ta’minlasin.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens xizmati boshlig'i A.P. Djaxonov:

4.1. "Uzbekistan Airways" AJda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti "Uzbekistan Airways" AJ me'yoriy hujjatlar elektron kutubxonasiga kiritilishini ta'minlasin va barcha tarkibiy bo'linmalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlarini mazkur Uslubiyotga muvofiq sifatli tashkil etilishini nazorat qilib borsin;

4.2. **Ellik ish kuni muddatida** "Uzbekistan Airways" ajning birlashgan xaritasi va korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxatini shakllantirib, o'rnatilgan tartibda tasdiqlash uchun kiritsin;

4.3. **Ikki oy muddatida** "Uzbekistan Airways" ajning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturini ishlab chiqib, o'rnatilgan tartibda tasdiqlash uchun kiritsin.

4. Ushbu buyruq Boshqaruv raisi o'rinbosarlari, departament, boshqarma, xizmat va bo'lim boshlig'lari, shuningdek "UAT", "Uzbekistan Helicopters", "O'MM" va "Ketrin" MChJ direktorlari

5. Buyruq bajarilishini nazorat qilish Boshqaruv raisining aviatsiya xavfsizligi bo'yicha o'rinbosari B.E. Niyozov zimmasiga yuklatilsin.

Boshqaruv raisi



I.R. Maxkamov

IMZOLANGAN:

BR birinchi o'rinbosari

U.A. Xusanov

BR aviatsiya xavfsizligi bo'yicha o'rinbosari

B.E. Niyozov

BR tijorat va turizm bo'yicha o'rinbosari

Sh.Sh. Xudaykulov

BR moliya masalalar bo'yicha o'rinbosari

A.A. Sattarov

BR raqamlashtirish bo'yicha o'rinbosari

Sh.G. Xodjiev

BR o'ta muhim parvozlar bo'yicha o'rinbosari

B.I. Xakimov

IR va KSRD direktori

U.A. Xaydarova

YuB boshlig'i

A.E. Omonturdiev

Xavfsizlik boshqarmasi boshlig'i

Z.T. Nishonov

KQK va komplaens xizmati boshlig'i

A.P. Djaxonov

T/h:

Ish jildi	-1	Yuk tashuvlari boshqarmasi	-1
BRning ish. chiq. bo'yicha 1-o'rinbosari	-1	Xavfsizlik boshqarmasi	-1
BRning O'MP bo'yicha o'rinbosari	-1	Birinchi bo'lim	-1
BRning parvoz ish.tashkil etish bo'yicha o'rinbosari	-1	Moliya departamenti	-1
BRning AX bo'yicha o'rinbosari	-1	O'zaro hisob-kitob departamenti	-1
BRning TvaT bo'yicha o'rinbosari	-1	Iqtisodiyot boshqarmasi	-1
BRning Moliyaviy masalalar bo'yicha o'rinbosari	-1	IT infr. rivojl. Departamenti	-1
BRning Raqamlashtirish bo'yicha o'rinbosari	-1	Raqamlashtirish boshqarmasi	-1
BRning davlat tilini rivojl. bo'yicha maslahatchisi	-1	Strategik va loyihalarni boshqarish departamenti	-1
BR yordamchisi	-1	PVB	-1
BR Apparati boshqaruvchisi	-1	Umumiy bo'lim	-1
Texnik direktor	-1	XINQ bo'limi	-1
O'MP ta'minlash boshqarmasi	-1	Davlat tilini riv. bo'limi	-1
PX va ST boshqarmasi	-1	YeIEvaTB	-1
Texnologik bo'limi	-1	YuB	-1
Xaridlar departamenti	-1	IR va KSR departamenti	-1
Xizmat departamenti	-1	Jamoatchilik bilan ishlash departamenti	-1
Parvozlar xizmati departamenti	-1	MMQvaTX bo'limi	-1
Uchuv-uslubiy bo'lim	-1	Ikkinchi bo'lim	-1
PLTD	-1	KQK va K xizmati	-1
YeXD	-1	Aksiyadorlar bilan korp.munosabatlar bo'limi	-1
PBM	-1	«UAT» MChJ	-1
TKvaTD	-1	«O'MM» MChJ	-1
TSvaMD	-1	«Ketrin» MChJ	-1
«Uzbekistan Airways sales» filiali	-1	«Uzbekistan Helicopters» MChJ	-1

Jami

- 50

Ijr: KQK va KX boshlig'i, A.P. Djaxonov
tel: 23- 36



“Uzbekistan Airways” AJ
Boshqaruvi raisining


2022y. “28” 07
456 -son buyrug‘iga 1-ilova

**“UZBEKISTAN AIRWAYS” AJDA
KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLARNI BAHOLASH
USLUBIYOTI
PSK.QMS-01.CS**

Toshkent

0.1. Hujjat to'g'risida ma'lumot

ISHLAB CHIQUARILGAN:

"Uzbekistan Airways" AJ KQKvaK xizmati boshlig'i  28.07.2022 Djaxonov A.P.
imzo sana

Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti "Uzbekistan Airways" AJ Boshqaruvi
raisining «28» 07 2022y. dagi 486 sonli buyrug'i bilan amalga kiritilgan

Hujjatni qayta ko'rib chiqish (yangilash) davriyligi 5 yilda 1 marta.

Ushbu hujjatni qayta ko'rib chiqish "Hujjatlashtirilgan ma'lumotni boshqarish bo'yicha yo'riqnoma" da belgilangan talablarga muvofiq amalga oshiriladi. Mazkur hujjatga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi qaror Aviakompaniya tarkibiy bo'linmalarining fikr-mulohazalari va takliflari, ichki va tashqi audit natijalari asosida "Uzbekistan Airways" AJ Sifat menejmenti vakili – boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari – ishlab chiqarish direktori tomonidan qabul qilinadi.

Hujjatning joylashuvi

Ushbu hujjatning asl nusxasi Aviakompaniyaning Umumiy bo'limida (kantselyariya) saqlanadi. Ushbu hujjatning ro'yhatga olingan nusxalari "Saqlovchilar ro'yxati" bo'yicha mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan saqlanadi.

Ushbu hujjat Aviakompaniyaning Normativ hujjatlar elektron kutubxonasida .pdf formatida saqlanadi.

Ushbu "Uslubiyot..." ga tegishli sharhlar, takliflar va istaklar, xususan, uni qo'llash, foydalanish va faoliyat sohasiga oid izohlar minnatdorchilik bilan qabul qilinadi. Ular "Uslubiyot..." ning amaldagi nashriga va keyingi nashrlarga o'zgartirishlar tayyorlashda hisobga olinadi.

Hujjat mazmuniga sharhlar yoki takliflarga, shuningdek, ushbu "Uslubiyot..."ni takomillashtirish bo'yicha istaklarni yozma ravishda (yoki og'zaki ravishda) Korruptsiyaga qarshi kurashish va komplaens xizmati boshlig'i nomiga yuborishingizni so'raymiz:

- a) tel: (+998 90) 998-15-06
- b) ichki tel.: 23-36
- c) e-mail: Azizkhon.Djakhonov@uzairways.com



0.2. Mundarija

№	Sarlavha	Varaq
0.1.	Hujjat haqida ma'lumot	0-1
0.2.	Mundarija	0-2
0.3.	Amaldagi sahifalar ro'yxati	0-3
0.4.	O'zgartirishlar va qo'shimchalarni ro'yxatga olish varaqaasi	0-4
0.5.	Saqlovchilar ro'yxati	0-5
1.	Umumiy qoidalar	1-1
2.	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash	2-1
3.	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning keyingi (har yillik) baholanishi	3-1
4.	Aviakompaniyada amalga oshiriladigan funksiyalar va tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholash tartibi	4-1
5.	Korrupsiyaviy xavf-xatarning qoldiq darajasini minimallashtirish choralari	5-1
6.	Yakuniy qoidalar	6-1
Ilova A	Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi	A-1
Ilova B	Korrupsiya xavf-xatariga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati	B-1
Ilova C	Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi	C-1
Ilova D	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni keyingi bosqichda baholash uchun tarkibiy bo'linmalarini tasniflash bo'yicha so'rovnoma shakli	D-1
Ilova E	Korrupsiyaviy xavf-xatar ehtimoli darajasini aniqlash mezonlari	E-1



0.3. Amaldagi sahifalar ro'yxati

Varaq raqami	O'zgartirish raqami	Sana
0 Bob		
0-1	0	25.07.2022
0-2	0	25.07.2022
0-3	0	25.07.2022
0-4	0	25.07.2022
0-5	0	25.07.2022
0-6	0	25.07.2022
1 Bob		
1-1	0	25.07.2022
1-2	0	25.07.2022
1-3	0	25.07.2022
2 Bob		
2-1	0	25.07.2022
2-2	0	25.07.2022
3 Bob		
3-1	0	25.07.2022
4 Bob		
4-1	0	25.07.2022
4-2	0	25.07.2022
5 Bob		
5-1	0	25.07.2022
6 Bob		
6-1	0	25.07.2022
Ilova A		
A-1	0	25.07.2022
Ilova B		
B-1	0	25.07.2022
Ilova C		
C-1	0	25.07.2022
Ilova D		
D-1	0	25.07.2022
Ilova E		
E-1	0	25.07.2022
E-2	0	25.07.2022
E-3	0	25.07.2022

0.4. O'zgartirishlar va qo'shimchalarni ro'yxatga olish varaqasi

O'zgartirish raqami	Asos	Varaq raqami			O'zgartirish sanasi	Kim tomonidan o'zgartirilgan Imzo
		O'zgartirilayotgan	Yangi	Olib qo'yilgan		

0.5. Saqllovchilar ro'xati

№	Nusxa raqami	Saqllovchilar
1.	1	BR ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'rinbosari
2.	2	BR parvoz ishlarini tashkil etish bo'yicha o'rinbosari
3.	3	BR o'ta muhim parvozlar bo'yicha o'rinbosari
4.	4	BR tijorat va turizm bo'yicha o'rinbosari
5.	5	BR aviatsiya xavfsizligi bo'yicha o'rinbosari
6.	6	BR moliya masalalar bo'yicha o'rinbosari
7.	7	BR raqamlashtirish bo'yicha o'rinbosari
8.	8	BR yordamchisi
9.	9	BR davlat tilini rivojl. bo'yicha maslahatchisi
10.	10	BR Apparati boshqaruvchisi
11.	11	Texnik direktori
12.	12	Texnologik bo'limi
13.	13	PX va ST boshqarmasi
14.	14	O'MP ta'minlash boshqarmasi
15.	15	Xaridlar departamenti
16.	16	Xizmat departamenti
17.	17	Parvozlar xizmati departamenti
18.	18	Uchuv-uslubiy bo'lim
19.	19	PLTD
20.	20	YeXD
21.	21	PBM
22.	22	TKvaTD
23.	23	TSvaMD
24.	24	“Uzbekistan Airways sales” filiali
25.	25	Yuk tashuvlari boshqarmasi
26.	26	Xavfsizlik boshqarmasi
27.	27	Birinchi bo'lim
28.	28	Moliya departamenti
29.	29	O'zaro hisob-kitob departamenti
30.	30	Iqtisodiyot boshqarmasi
31.	31	IT infr. rivojl. Departamenti
32.	32	Raqamlashtirish boshqarmasi
33.	33	Strategik va loyihalarni boshqarish departamenti
34.	34	PVB
35.	35	Umumiy bo'lim
36.	36	XINQ bo'limi
37.	37	Davlat tilini riv. bo'limi
38.	38	YeIEvaTB
39.	39	YuB
40.	40	IR va KSR departamenti
41.	41	Jamoatchilik bilan ishlash departamenti
42.	42	MMQvaTX bo'limi
43.	43	Ikkinchi bo'lim
44.	44	KQK va K xizmati
45.	45	Aksiyadorlar bilan korp.munosabatlar bo'limi



46.	46	"Uzbekistan Helicopters" MChJ
47.	47	"Training Center" MChJ
48.	48	"UAT" MChJ
49.	49	"Ketring" MChJ
50.	50-59	Zaxira
51.	60	Electron versiya

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur uslubiyot "Uzbekistan Airways" Aksiyadorlik jamiyati tarkibiy bo'linmalariga (keyingi o'rinlarda Aviakompaniya) yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni bajarishda yuzaga keladigan korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bo'yicha qoidalarini belgilab beradi hamda Aviakompaniyada korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholashga yagona yondashuvni shakllantirishga qaratilgan.

1.2. Quyidagilar:

- Aviakompaniya faoliyatini kompleks tahlil qilish orqali korruptsiya xavf-xatariga eng ko'p moyil bo'lgan funktsiya va lavozimlarini belgilash;
- korruptsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha samarali oldini olish choralari ishlab chiqish Aviakompaniyadagi korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholashning maqsadi hisoblanadi.

1.3. Aviakompaniyadagi korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash:

- Korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi;
- Aviakompaniyada korruptsiyaga qarshi kurashish choralari (tadbirlar), mas'ul shaxslar, amalga oshirish mexanizmi va muddatlarini o'z ichiga olgan korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur ishlab ichiqilishini nazarda tutadi.

1.4. Aviakompaniyadagi korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash har yili yoki quyidagi holatlar yuzaga kelganda:

- korruptsiyaviy xavf-xatarlarni birlamchi baholash zaruriyati;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchilik talablarining o'zgarishi;
- funktsiya yoki tartib-taomilning amalga oshirilishiga sezilarli ravishda ta'sir ko'rsatuvchi Aviakompaniyaning ichki hujjatlari o'zgarishi;
- Aviakompaniya tuzilmasining, funksiyalarini amalga oshirishida o'ziga xos jihatlarning o'zgarishi, yangi funksiyalarning yuklanishi;
- Aviakompaniya funksiyalarining korruptsiyaviy xavf-xatar darajasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa shart-sharoitlarning kelib chiqishida amalga oshiriladi.

1.5. Ushbu uslubiyotda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

qoldiq xavf-xatar – korruptsiyaviy xavf-xatarini minimallashtirishga qaratilgan choralarni qabul qilingandan so'ng, qoluvchi xavf-xatar (ya'ni, amaldagi korruptsiyaga qarshi kurashish siyosati va tartib-taomillarini, xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni va joriy etilgan nazoratlarni hisobga olgan holda);

korruptsiyaviy xavf-xatar – xodimlar yoki uchinchi shaxslar tomonidan Aviakompaniya nomidan va (yoki) ularning manfaatlarini ko'zlab korruptsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish xavfi;

korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash – Aviakompaniya tomonidan amalga oshiriladigan funksiyalarni tahlil qilish, ularning korruptsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasini aniqlash, shuningdek funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan tegishli tartib-taomillar uchun o'ziga xos va qoldiq korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash faoliyati;

korruptsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasi – Aviakompaniyadagi korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari bo'yicha tuziladigan va Aviakompaniya funksiyalari va tartib-taomillarining umumiy ro'yxati, tegishli funksiyalarni amalga oshirish bilan

bog'liq ehtimoliy korrupsiyaviy xavf-xatar (sxemalar) tasnifi, o'ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi, ularni minimallashtirish choralari va aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan xodimlar lavozimlarini o'z ichiga oluvchi birlashgan hujjat;

korrupsiyaviy harakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

tartib-taomil – Aviakompaniya funksiyalarini amalga oshirish doirasidagi xodimlar, bo'linmalar tomonidan bajariladigan yoki bitta natijaga qaratilgan, yohud ma'lum bir funktsiyaning ajralmas elementi hisoblangan, alomatlar bo'yicha bir guruhga birlashtirish mumkin bo'lgan harakatlar yig'indisi;

funksiya – bir nechta tartib-taomilni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan Aviakompaniyaning ichki jarayonlaridan (faoliyat yo'nalishlari) biri;

ekspert fikri – aniq fakt yoki hodisa bo'yicha xodim yoki bo'linmaning sub'ektiv qarashi yoki fikriga asoslangan qarori.

o'ziga xos xavf-xatar – Aviakompaniya faoliyati va amalga oshirilayotgan funksiyalari spesifikasidan kelib chiqadigan xavf-xatar, shu bilan birga uni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi hisobga olinmagan holda (ya'ni, amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va tartib-taomillari, xavf-xatarni minimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar va joriy etilgan nazoratlar hisobga olinmagan holda);

tarkibiy bo'linmaning korrupsiyaviy xavf-xatarlari xaritasi – Aviakompaniya tarkibiy bo'linmasidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari bo'yicha tuziladigan hamda organ yoki muassasa funksiyalari va tartib-taomillarining umumiy ro'yxati, tegishli funksiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq ehtimoliy korrupsiyaviy xavf-xatar (sxemalar) tasnifi, o'ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi, ularni minimallashtirish choralari va aniqlangan korrupsiyaviy xatarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan xodimlar lavozimlarini o'z ichiga oluvchi hujjat.

1.6. Aviakompaniyadagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati xizmati (keyingi o'rinlarda – komplayens xizmati) tomonidan Aviakompaniya Boshqaruvi raisining buyrug'i asosida amalga oshiriladi. Bunda, Aviakompaniya Boshqaruvi raisining buyrug'ida baholashni o'tkazish aniq muddatlari ko'rsatiladi.

1.7. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholashda komplayens xizmati quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar va bo'linma rahbarlarini jalb qilgan holda Aviakompaniyada xavf-xatarlarni baholash jarayonini tashkillashtiradi;

- Aviakompaniyada korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayoni ustidan umumiy nazoratni amalga oshiradi;

- Aviakompaniyadagi korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar, shuningdek Aviakompaniya rahbariyati va tarkibiy bo'linmalariga mazkur uslubiyotda ko'zda tutilgan tartibga rioya qilish bo'yicha maslahatlar beradi;

- Aviakompaniya tegishli rahbar xodimlari bilan hamkorlikda tarkibiy bo'linmalarning korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzadi;

- Korruptsiya xavf-xatariga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar va tarkibiy bo'linmalarning korruptsiyaviy xavf-xatarlari xaritasini Aviakompaniyaning korruptsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasiga umimlashtiradi;

- Aviakompaniya Boshqaruv raisi, uning o'rinbosarlari va tegishli tarkibiy bo'linmalar rahbarlariga xavf-xatarlarni baholash natijalari va korruptsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini taqdim etadi;

- tasdiqlangan xavf-xatarlar xaritasi asosida tarkibiy bo'linmalar tomonidan ishlab chiqilgan korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturlar loyihalarini ko'rib chiqadi va ularni qabul qilish maqsadga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi;

- tarkibiy bo'linmalarning korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi asosida Aviakompaniyaning korruptsiyaga qarshi kurashish dasturini ishlab chiqadi va korruptsiyaga qarshi kurashish yo'nalishiga mas'ul bo'lgan Boshqaruv raisi o'rinbosari bilan kelishadi;

- Aviakompaniyada korruptsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarini muvofiqlashtiradi va ularni nazorat qiladi;

- ushbu uslubiyotda ko'zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

- Komplayens xizmati zarur hollarda tarkibiy bo'linma rahbarlari va korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullardan qo'shimcha axborot va hujjatlarni talab qilib oladi.

1.8. Tarkibiy bo'linmalardagi korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar komplayens xizmati bilan hamkorlikda quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- korruptsiyaviy xavf-xatarlar baholanishini tashkil qiladi va o'tkazadi;

- korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayoni ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini o'z vakolati doirasida tuzadi va ushbu uslubiyotda ko'zda tutilgan tartibda kelishilishini ta'minlaydi;

- tarkibiy bo'linmalarning korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturlarini ishlab chiqadi va ushbu uslubiyotda ko'zda tutilgan tartibda kelishilishini ta'minlaydi;

- tarkibiy bo'linmalarda korruptsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

- ushbu uslubiyotda ko'zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

2. KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLARNI DASTLABKI BAHOLASH

2.1. Aviakompaniyada korruptsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash jarayoni tegishli buyruqlar va ularda ko'rsatilgan muddatlar asosida amalga oshiriladi.

Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholashning umumiy muddati uch oydan oshmasligi lozim.

2.2. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash funksiyalarning korruptsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasini dastlabki baholash va tegishli funksiyalar doirasida Aviakompaniya xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan ayrim tartib-taomillarning korruptsiyaviy xavf-xatar darajasini baholashni o'z ichiga oladi.

2.3. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash, pastdan tepaga (tegishli tarkibiy bo'linmalarining eng quyi pog'ona xodimlaridan eng yuqori pog'ona xodimlarigacha), mazkur bobning 2.4 - 2.13 bandlarida ko'rsatilgan tartib va ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

2.4. Komplayens xizmati ushbu uslubiyotga A-ilovada keltirilgan korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqish bo'yicha Aviakompaniyaning tarkibiy bo'linmalariga ko'rsatma yuborilishini ta'minlaydi.

Ko'rsatmada tasdiqlangan korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini komplayens xizmatiga taqdim etish muddatlari ko'rsatilib, bu muddat yigirma besh ish kunidan kam bo'lmasligi kerak.

2.5. Aviakompaniya tarkibiy bo'linmalarining korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi tegishli bo'linmalar tomonidan ishlab chiqilib, komplayens xizmatiga yagona korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzish maqsadida kiritiladi.

2.6. Aviakompaniya tarkibiy bo'linmalarining korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi tegishli bo'linmaning korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullari tomonidan ishlab chiqiladi va tegishli tarkibiy bo'linma faoliyatini nazorat qiluvchi Boshqaruv raisining o'rinbosari bilan kelishiladi. Tegishli rahbar bilan kelishilgan korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi komplayens xizmatiga ko'rib chiqish uchun kiritiladi.

2.7. Tarkibiy bo'linmalar tomonidan ishlab chiqilgan korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga oid savollar yuzaga kelgan taqdirda, komplayens xizmati xodimlari tegishli tarkibiy bo'linmaga izoh berish yoki xaritaga tuzatish kiritish uchun so'rov yuboradi. Bunda, so'rovga javob so'rov olingan kundan boshlab besh ish kunidan oshmagan muddatda yuborilishi lozim.

2.8. Komplayens xizmati xodimlari o'z ekspertlik fikriga tayangan holda korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga o'zgartirishlar kiritishlari mumkin.

2.9. Tarkibiy bo'linmalarining korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritalari asosida komplayens xizmati Aviakompaniyaning korruptsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini ishlab chiqadi.

2.10. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini tuzish muddati, barcha tarkibiy bo'linmalarining korruptsiyaviy xavf-xatarlari xaritasi tasdiqlangan sanadan boshlab, o'n ish kunidan oshmasligi kerak.

2.11. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasi korruptsiyaga qarshi kurashish yunalishiga mas'ul bo'lgan Aviakompaniya Boshqaruv raisi o'rinbosari bilan kelishilib, komplayens xizmati taqdimnomasiga asosan Boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlanadi.

2.12. Qoldiq korruptsiyaviy xavf-xatarlarning yuqori darajasi bilan ifodalanadigan tartib-taomillar uchun komplayens xizmati va korruptsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ullar ushbu uslubiyotining B-ilovasiga muvofiq korruptsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxatini ishlab chiqadi.

2.13. Aviakompaniyaning korruptsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati Aviakompaniyaning korruptsiyaga qarshi kurashish yunalishiga mas'ul bo'lgan

Boshqaruv raisi o'rinbosari bilan kelishilib, komplayens xizmati taqdimnomasiga asosan Boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlanadi.

2.14. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasida belgilangan chora-tadbirlarga asosan tarkibiy bo'linmalarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi ushbu uslubiyotning C-ilovasiga muvofiq, korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasi tasdiqlangan sanadan o'n ish kuni ichida ishlab chiqilib tasdiqlanadi.

Tarkibiy bo'linmalarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi komplayens xizmati bilan kelishilganidan so'ng, tegishli tarkibiy bo'linma faoliyatini nazorat qiluvchi Boshqaruv raisining o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

2.15. Aviakompaniya korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarini inobatga olgan holda komplayens xizmati tomonidan ishlab chiqilib, korrupsiyaga qarshi kurashish yunalishiga mas'ul bo'lgan Boshqaruv raisi o'rinbosari bilan kelishilib, Aviakompaniya Boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlanadi.



3. KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLARNING KEYINGI (HAR YILLIK) BAHOLANISHI

3.1. Aviakompaniyada korruptsiyaviy xavf-xatarlarning keyingi baholanishi doimiy ravishda, bir yilda kamida bir marta, qoida tariqasida yil boshida Boshqaruv raisining tegishli buyrug'i asosida o'tkaziladi.

Keyingi (har yillik) korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash muddati ikki oydan oshmasligi lozim.

3.2. Yillik korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ushbu uslubiyotning 2-bobida ko'rsatilgan korruptsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash tartibida amalga oshiriladi.

3.3. Har yillik korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash boshlanishidan oldin komplayens xizmati Aviakompaniyaning tarkibiy bo'linmalari rahbarlariga oldingi baholash davriga nisbatan qonunchilikda yoki ichki idoraviy hujjatlarga kiritilgan o'zgarishlarni aniqlash maqsadida ushbu uslubiyotga D-ilovaga mos shaklda so'rovnoma yuboradi.

3.4. Komplayens xizmati tarkibiy bo'linmalar rahbarlari tomonidan imzolangan so'rovnomalarni yig'adi va tahlil qiladi.

4. AVIAKOMPANIYADA AMALGA OSHIRILADIGAN FUNKSIYALAR VA TARTIB-TAOMILLARNING KORRUPSIYAVIY XAVF-XATAR DARAJASINI BAHOLASH TARTIBI

4.1. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tashqi va ichki axborot manbalaridagi ma'lumotlar tahlili asosida, jumladan:

Aviakompaniyaning funksiyalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va Aviakompaniyaning ichki hujjatlari (tarkibiy bo'linmalar, xodimlarning lavozim yo'riqnomalari to'g'risidagi nizomlar va h.k.);

- ichki tekshiruvlar materiallari, shu bilan birga xizmat tekshiruvlari materiallari;
- ichki audit va korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha monitoring natijalari;
- odob-ahloq komissiyasi yig'ilishlari natijalari;
- manfaatdor tomonlar, ko'rsatilayotgan xizmat iste'molchilari, ekspertlar va boshqa manfaatdor shaxslar orasida o'tkazilgan so'rov, jumladan ijtimoiy tadqiqotlar natijalari bo'yicha Aviakompaniya xodimlari tomonidan sodir etilgan korruptsiyaviy harakatlarga oid murojaatlar;
- Aviakompaniya faoliyatidagi huquqbuzarliklarga oid statistik ma'lumotlar;
- korruptsiyaviy harakatlar to'g'risida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallariga kelib tushgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojatlari;
- Aviakompaniya xodimlari tomonidan sodir etilgan korruptsiyaviy harakatlar yoki odob-ahloq qoidalariga rioya qilmaslik to'g'risida OAVdagi ma'lumotlar;
- ijtimoiy tarmoqlarda qoldirilgan izohlar;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan taqdim etilgan materiallar, jumladan jinoyat ishlariga doir axborotlar va boshqalar asosida amalga oshiriladi.

4.2. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayonida Aviakompaniyaning har bir funksiyasi va tartib-taomili bo'yicha korruptsiyaviy harakatlarni sodir etish imkoniyatlari mavjudligi bo'yicha tahlil qilish lozim.

4.3. Har bir funksiya quyidagi shkala bo'yicha baholanadi:

- Korruptsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan funksiya;
- Korruptsiyaviy xavf-xatarlarga eng kam moyil bo'lgan funksiya.

4.4. O'rganilayotgan funksiya doirasida amalga oshirilayotgan tartib-taomillarning o'ziga xos xavf-xatarini baholash quyidagi mezonlarga ko'ra amalga oshiriladi:

- o'ziga xos yuqori xavf-xatar korruptsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan tartib-taomillarga beriladi;
- o'ziga xos o'rta xavf-xatar korruptsiyaviy xavf-xatarlarga eng kam moyil bo'lgan funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan tartib-taomillarga beriladi;
- o'ziga xos past xavf-xatarlar ko'zda tutilmagan va komplayens xizmatining asosli xulosasi asosida istisno tariqasida qo'llanilishi mumkin.

4.5. Qoldiq korruptsiyaviy xavf-xatar darajasini baholash xavf-xatarli hodisani amalga oshirishining ehtimoli (mazkur uslubiyotning E-ilovasi E.1-jadvaldagi mezonlarga qarang)

va korrupsiyaviy xavf-xatarning oqibat darajasini (mazkur uslubiyotning E-ilovasi E.2-jadvalidagi mezonlarga qarang) hisobga olgan holda xavf-xatarlar ahamiyatlilik shaklidan foydalanib amalga oshiriladi (mazkur uslubiyotning E-ilovasidagi E.3-rasm).

5. KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARNING QOLDIQ DARAJASINI MINIMALLASHTIRISH CHORALARI

5.1. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini belgilashda:

- har bir chora, uning maqsadlari, pirovard natijasi va ma'lum bir korruptsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish bilan aloqasini Aviakompaniya xodimlari tushunishi uchun aniq va ravshan ifoda etilishi;

- har bir chora uchun uni amalga oshirish muddati yoki davriyligi belgilanishi, uni amalga oshirish uchun mas'ul shaxslar, amalga oshirilishini monitoring qilish va samaradorligini baholash mexanizmlari aniqlab olinishi zarur.

5.2. Aviakompaniya korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga kiritilgan, aniqlangan korruptsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlari Aviakompaniyaning korruptsiyaga qarshi kurashish dasturlariga ham kiritiladi.

5.3. Aviakompaniyaning korruptsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish ustidan nazorat komplayens xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

6. YAKUNIY QOIDALAR

6.1. Zarurat bo'lganda, Aviakompaniyaning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bilan bog'liq masalalar bo'yicha komplayens xizmati tomonidan Boshqaruv raisi va Kuzatuv Kengashiga o'rnatilgan tartibda takliflar kiritiladi.

“Uzbekistan Airways” AJda
korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyo
A-ilova

(Tarkibiy bo'linma nomi)
Korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi

№	Funksiya nomi	Funksiyaning korruptsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasi(eng ko'p moyil / eng kam moyil)	Funksiya doirasida bajarilayotgan tartib-taomil nomi	Tartib-taomilni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar (lavozimi, bo'linmasi)	Ehtimoliy korruptsiyaviy sxema (xavf-xatar)ning qisqacha ta'rifi	O'ziga xos korruptsiyaviy xavf-xatar (yuqori/o'rta/past)	Mavjud nazorat tartib-taomillari / korruptsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish choralari	Nazorat tartib-taomillari/ korruptsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy va ichki hujjatlar	Nazorat tartib-taomillari/korruptsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mas'ul shaxslar (lavozimi, bo'linmasi)	Qoldiq xavf-xatar darajasi (yuqori / o'rta / past)	Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish muddatlari	Izohlar (zarur hollarda)
1												
2												

1. Bo'linma
- 1.3. Bo'lim
- 1.2. Departament/Boshqarma
2. To'ldirish uchun mas'ul
- 2.1. F.I.Sh.
- 2.2. Lavozimi
- 2.3. Bog'lanish uchun (elektron pochta, telefon)

“Uzbekistan Airways” AJda korruptsiyaviy
xavf-xatarlarni baholash Uslubiyotiga
B-ilova

**Korruptsiya xavf-xatariga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar
RO‘YXATI**

№	Tarkibiy bo‘linma	Lavozim (funktsiyalarni bajarish uchun mas’ul bo‘lgan shaxslarni ko‘rsatgan holda)
1.1.		
...		
2.1.		
...		

“Uzbekistan Airways” AJda korruptsiyaviy
xavf-xatarlarni baholash Uslubiyotiga
C-ilova

(Tarkibiy bo‘linma nomi)
korruptsiyaga qarshi kurashish dasturi

№	Tarkibiy bo‘linma nomi	Korruptsiyaviy xavf-xatarni minimmallashtirish bo‘yicha choralar/tadbirlar/tartib- taomillar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddatlari	Mas'ul ijrochilar (FISH, lavozimi)
1.1.					
1.2.					
...					
2.1.					
2.2.					
...					

“Uzbekistan Airways” Ajda
Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni
baholash Uslubiyotiga
D-ilova

**Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni keyingi bosqichda baholash uchun tarkibiy
bo'linmalarini tasniflash bo'yicha so'rovnoma
SHAKLI**

Quyidagi savollarga javob bersangiz (kerakligisini tagiga chizing):

1. Korruptsiyaviy xavf-xatar so'nggi martta baholangandan so'ng qonunchilikda qandaydir o'zgarishlar sodir bo'lganmi? Agar javob ijobiy bo'lsa, quyida keltirilgan jadvalga tegishli ma'lumotlarni kiriting.

A) Ha B) Yo'q

2. Tarkibiy bo'linmangiz tomonidan bajariladigan tuzilma yoki funktsiya faoliyatini tartibga soluvchi ichki hujjatlarda korruptsiyaviy xavf-xatar so'nggi martta baholangandan so'ng qandaydir o'zgarishlar sodir bo'lganmi? Agar javob ijobiy bo'lsa, quyidagi keltirilgan shaklga tegishli ma'lumotlarni kiriting.

A) Ha B) Yo'q

3. Korruptsiyaviy xavf-xatar so'nggi martta baholangandan so'ng davlat boshqaruv organlari faoliyati/tuzilmasida tarkibiy bo'linmangiz tomonidan bajarilayotgan funktsiyaga ta'sir qilgan/ta'sir qilishi mumkin bo'lgan qandaydir o'zgarishlar yuz berdimi? Agar javobingiz ijobiy bo'lsa, quyida keltirilgan shaklga tegishli ma'lumotlarni kiriting.

A) Ha B) Yo'q

4. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni avvalgi baholashda ko'zda tutilgan korruptsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlari amalga oshirildimi? Nima va qachon amalga oshirilganini ta'riflab bering. Agar amalga oshirilmagan yoki qisman amalga oshirilgan bo'lsa, sababini yozing.

A) Ha B) Yo'q V) Qisman amalga oshirilgan

5. “Uzbekistan Airways” AJ bo'linmalarida funktsiyalarni bajarish va tartib-taomillarni amalga oshirishga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa shart-sharoitlar mavjudmi? Agar javobingiz ijobiy bo'lsa, quyida keltirilgan jadvalga tegishli ma'lumotlarni kiriting.

A) Ha B) Yo'q

№	Tarkibiy bo'linma nomi	Funktsiyalar o'zgargani sabablari	O'zgargan funktsiya ta'rifi	Funktsiya doirasida bajarilayotgan yangi/o'zgargan tartib-taomillar	Tartib-taomillarni bajarish uchun mas'ul shaxslar (FISH, lavozimi)
1.1.					
1.					
1.1.					
2.					
...					

Bo'linma _____
To'ldirayotgan shaxsning lavozimi _____
To'ldirayotgan shaxsning FISH _____
Imzo _____
To'ldirish sanasi _____
Ilova: D

"Uzbekistan Airways" AJda korrupsiyaviy
xavf-xatarlarni baholash Uslubiyotiga
E-ilova


**E.1-jadval – Korrupsiyaviy xavf-xatar ehtimoli darajasini
aniqlash mezonlari**

Ehtimoli	Ta'rifi
Yuqori	— O'ziga xos xavf-xatar darajasi yuqori — Nazorat tadbirlarining mavjud emasligi / sezilarli darajada kam-ko'stini to'ldirish kerak bo'lgan nazorat tadbirlarining mavjudligi — Tartib-taomilni ichki hujjatlar yordamida aniq tartibga solinishi mavjud emasligi — Tartib-taomilni avtomatlashtirish mavjud emasligi/darajasi pastligi
O'rtacha	— O'ziga xos xavf-xatar darajasi o'rta — Tartib-taomil tartibga solingan, kam-ko'stini oz miqdorda to'ldirish kerak bo'lgan nazorat tadbirlari joriy etilgan — Tartib-taomil tartibga solingan, qisman avtomatlashtirilgan, biroq yetarli darajada shaffof emas — O'ziga xos xavf-xatar darajasi yuqori xavf-xatarni kamaytirish uchun yetarli bo'lgan nazorat tadbirlari, jumladan Aviakompaniyaning ichki hujjatlari bilan tartibga solingan, kamida uchta shaxs tomonidan kross-funksional nazoratni ko'zda tutuvchi nazorat tadbirlarining mavjudligi — Tartib-taomil qisman yoki to'liq avtomatlashtirilgan
Past	— O'ziga xos xavf-xatar darajasi past — O'ziga xos xavf-xatar darajasi o'rta hamda xavf-xatarni kamaytirish uchun yetarli bo'lgan nazorat tadbirlari, jumladan ichki hujjatlar bilan tartibga solingan, kamida uchta shaxs tomonidan kross-funksional nazoratni ko'zda tutuvchi nazorat tadbirlarining mavjudligi — Tartib-taomil to'liq avtomatlashtirilgan

E.2-jadval – Korrupsiyaviy xavf-xatarning oqibat (ta'sirchanlik) darajasini aniqlash mezonlari

Oqibat darajasi	Obro'ga putur yetkazish	Javobgarlik
Yuqori	— Xavf-xatar Aviakompaniyaning mamlakat va xalqaro miqyosdagi obro'siga sezilarli ravishda putur yetkazadi	— Aviakompaniya xodimlariga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atish uchun tegishli organlarga hujjat yuborish tashabbusi bilan chiqish
O'rta	— OAVda salbiy hodisaning yoritilishi; — Aholi va hamkorlardan salbiy fikrlar va shikoyatlar olish; — xavf-xatar tashkilot obro'siga mahalliy darajada putur yetkazadi.	— Aviakompaniya xodimlariga nisbatan ma'muriy surishtiruv o'tkazish uchun hujjatlarni Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yuborish tashabbusi bilan chiqish
Past	— Aholi, mahalliy OAVlardan vaziyatga izoh berishni so'rab alohida so'rovlar tushishi mumkin	— Aviakompaniya xodimlariga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazish tashabbusi bilan chiqish mumkin

E.3-rasm. Qoldiq xavf-xatar darajasini aniqlash shakli



KELISHILGAN:

BR birinchi o'rinbosari

U.A. Xusanov

BR aviatsiya xavfsizligi bo'yicha o'rinbosari

B.E. Niyozov

BR tijorat va turizm bo'yicha o'rinbosari

Sh.Sh. Xudaykulov

BR moliya masalalar bo'yicha o'rinbosari

A.A. Sattarov

BR raqamlashtirish bo'yicha o'rinbosari

Sh.G. Xodjiev

BR o'ta muhim parvozlar bo'yicha
o'rinbosari

B.I. Xakimov

IR va KSRD direktori

U.A. Xaydarova

YuB boshlig'i

A.E. Omonturdiev

Xavfsizlik boshqarmasi boshlig'i

Z.T. Nishonov

KQK va komplaens xizmati boshlig'i

A.P. Djaxonov



BUYRUQ | ПРИКАЗ

20 22 у. « 28 » 07 № 456

О введении в действие «Методики оценки коррупционных рисков в АО «Uzbekistan Airways»

